

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3/1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3/1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3/1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3/1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3/1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраҳон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARINI PROGNOZLASHNING SOTSIOLOGIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....5

2. Пак Полина

ЦИФРОВАЯ СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОПЫТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....12

3. Вахидова София

ФАКТОРЫ, ПРЕДСКАЗЫВАЮЩИЕ ПРИВЕРЖЕННОСТЬ ГЕНДЕРНЫМ СТЕРЕОТИПАМ В ОТНОШЕНИИ МУЖЧИН: ОПЫТ МНОЖЕСТВЕННОГО РЕГРЕССИОННОГО АНАЛИЗА.....21

4. Abduvalieva Mumtozxon, Qo'ldosheva Iroda

BOLALAR IJTIMOYIY HIMOYASINING XALQARO STANDARTLARI VA GLOBAL RIVOJLANTIRISH TENDENSIYLARI.....29

5. Bozorova O'lmasxon

DAVLAT BOSHQARUVI MODERNIZASIYASIDA YOSH RAHBARLAR IJTIMOYIY KAPITALINING KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....37

6. Adilova Rayxon

IBN SINONING "SIYOSAT"RISOLASIDA "DAVLAT ICHIDAGI DAVLAT" NAZARIYASI.....44

7. Artikbayeva Nazokat

YOSHLARDA INTERNETGA QARAMLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOYIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....52

8. Arifxodjayeva Luiza

YOSH RAHBARLARDA O'ZGARISHLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYASINI BAHOLASH TIZIMI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....58

9. Махмудова Малика

ЛАТЕНТНАЯ «ВИНОВНОСТЬ ЖЕРТВЫ» КАК БАРЬЕР ДОСТУПА ЖЕНЩИН К ПРАВОСУДИЮ ПО ДЕЛАМ О СЕМЕЙНОМ НАСИЛИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....65

10. Тилепова Гулайым

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ ИНТЕГРАЦИЕЙ.....76

11. Bekchanova Sevinch

NOGIRONLIGI BOR BOLALAR OTA-ONALARINING INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA ISHTIROKI: "SHAXSIY JASORAT"DAN INSTITUTSIONAL SHERIKLIKKA (TOSHKENT SHAHRI SERGELI TUMANI MISOLIDA).....90

12. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM BITIRUVCHILARINING MEHNAT BOZORIGA INSTITUTSIONAL MOSLASHUVINI BAHOLASHNING SOTSIOLOGIK MEZONLARI.....97

13. Azizov S.

MARKAZIY OSIYO VA YAPONIYA XALQLARI O'RTASIDAGI ILK MADANIY-SIVILIZATSIYAVIY ALOQALAR: TARIXIY-METODOLOGIK TAHLIL.....105

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Bekchanova Sevinch,

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

NOGIRONLIGI BOR BOLALAR OTA-ONALARINING INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA ISHTIROKI: "SHAXSIY JASORAT"DAN INSTITUTSIONAL SHERIKLIKKAGA (TOSHKENT SHAHRI SERGELI TUMANI MISOLIDA)

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21498696>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Toshkent shahri Sergeli tumanidagi inklyuziv sinflarda tahsil olayotgan nogironligi bor bolalar ota-onalarining ko'p qirrali tajribasi tadqiq etiladi. 2026-yil fevral oyida besh ota-ona bilan o'tkazilgan yarim tuzilmalashtirilgan intervyularning sifat tahlili asosida aniqlandiki, tizimli qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tyutorlar va psixologlar yo'qligi ota-onani bolaning yagona bilim saqlovchisiga aylantirmoqda. Epshteyn va Ternbull nazariyalari asosida emotsional to'siqlar, "sudlanuvchi sindromi" hamda har bir nozologik guruhning (eshitish, tayanch-harakat, nutq, yurak-qon tomir buzilishlari) o'ziga xos ehtiyojlari tavsiflanadi. Olingan natijalar Gana, Iordaniya, Filippin, Germaniya va Finlyandiya tajribasi bilan qiyoslanadi. Xulosa sifatida oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikni rasmiylashtiruvchi, ota-onani "murojaatchi"dan "ekspert-hamkor"ga aylantiruvchi "Individual hamrohlik varagi" nomli innovatsion vosita ilmiy asoslab taklif etiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, ota-onalar ishtiroki, Epshteyn modeli, PMPK (tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya), ijtimoiy integratsiya, Sergeli tumani, individual hamrohlik varagi.

Бекчанова Севинч,

Магистрант Национального университета Узбекистана

имени Мирзо Улугбека

УЧАСТИЕ РОДИТЕЛЕЙ ДЕТЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В ПРОЦЕССЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ОТ «ЛИЧНОГО МУЖЕСТВА» К ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОМУ ПАРТНЁРСТВУ (НА ПРИМЕРЕ СЕРГЕЛИЙСКОГО РАЙОНА ГОРОДА ТАШКЕНТА)

АННОТАЦИЯ

В настоящей статье исследуется многогранный опыт родителей детей с инвалидностью, обучающихся в инклюзивных классах общеобразовательных школ Сергелийского района города Ташкента. На основе качественного анализа полуструктурированных интервью, проведённых в феврале 2026 года с пятью родителями, установлено, что отсутствие системных механизмов поддержки, в частности тьюторов и школьных психологов, фактически превращает родителей в единственных носителей знаний о потребностях и особенностях развития своего ребёнка. С опорой на теоретические подходы Джойс Эпштейн и Энн Тернбулл раскрываются эмоциональные барьеры, феномен «синдрома обвиняемого родителя», а также специфические образовательные потребности различных

нозологических групп (нарушения слуха, опорно-двигательного аппарата, речи и сердечно-сосудистой системы). Полученные результаты сопоставляются с практиками Ганы, Иордании, Филиппин, Германии и Финляндии. В качестве научно обоснованного решения предлагается инновационный инструмент – «Индивидуальная карта сопровождения», институционализирующий сотрудничество семьи и школы и трансформирующий роль родителя из «просителя» в «эксперта-партнёра».

Ключевые слова: инклюзивное образование, участие родителей, модель Эпштейн, ПМПК (психолого-медико-педагогическая комиссия), социальная интеграция, Сергелийский район, индивидуальная карта сопровождения.

Bekchanova Sevinch,

Master's Student

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

PARENTAL INVOLVEMENT OF FAMILIES OF CHILDREN WITH DISABILITIES IN THE INCLUSIVE EDUCATION PROCESS: FROM “PERSONAL COURAGE” TO INSTITUTIONAL PARTNERSHIP (A CASE STUDY OF THE SERGELI DISTRICT OF TASHKENT CITY)

ABSTRACT

This article explores the multifaceted experiences of parents of children with disabilities enrolled in inclusive classrooms in the Sergeli district of Tashkent, Uzbekistan. Based on a qualitative analysis of semi-structured interviews conducted with five parents in February 2026, the study found that the absence of systematic support mechanisms, particularly tutors and school psychologists, effectively places parents in the role of the sole holders of knowledge regarding their children's educational and developmental needs. Drawing upon the theoretical frameworks of Joyce Epstein and Ann Turnbull, the article examines emotional barriers, the phenomenon of the “accused parent syndrome,” and the specific educational needs of different disability groups, including hearing impairments, musculoskeletal disorders, speech impairments, and cardiovascular conditions. The findings are compared with inclusive education practices in Ghana, Jordan, the Philippines, Germany, and Finland. As a scientifically grounded solution, the study proposes an innovative tool—the Individual Support Record – designed to institutionalize collaboration between families and schools and transform parents from “service applicants” into “expert partners.”

Keywords: inclusive education, parental involvement, Epstein model, PMPC (Psychological-Medical-Pedagogical Commission), social integration, Sergeli district, Individual Support Record.

KIRISH

Zamonaviy jahon ta'lim amaliyoti nogironlikning tibbiy modelidan ijtimoiy modelga o'tishi bilan tavsiflanadi, bu esa maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning tengdoshlari muhitiga integratsiyalashuvi yo'lidagi “munosabatga oid” va tashkiliy to'siqlarni bartaraf etishni anglatadi. Ushbu jarayon Salamanka deklaratsiyasi va BMTning “Nogironlar huquqlari to'g'risida”gi konvensiyasi kabi asosiy xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan bo'lib, ular har bir bolaning tengdoshlari muhitida sifatli ta'lim olish huquqini belgilaydi [1]. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezident Sh. M. Mirziyoyevning topshiriqlariga muvofiq va 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son Qaroriga asosan, 2020-2025-yillarga mo'ljallangan Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan [2]. Ushbu islohotlarning strategik maqsadi barcha bolalar uchun, ularning individual xususiyatlaridan qat'i nazar, ta'lim olishga teng huquqli imkoniyat yaratish hamda 2025-yilga qadar maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning 40 foizigacha inklyuziv ta'lim bilan qamrab olinishidir.

Mustahkam me'yoriy-huquqiy bazaning mavjudligiga qaramay, joylarda inklyuziyani amaliy amalga oshirish bir qator tizimli muammolarga duch kelmoqda. Ular orasida malakali yordamchi kadrlar (tyutorlar, maxsus pedagoglar) tanqisligi, umumta'lim maktablari o'qituvchilarining yetarli

darajada tayyor emasligi va maktab bilan oila o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi bor. Bunday sharoitda ota-onalar nafaqat qonuniy vakillar, balki asosiy "tizim provayderlari"ga, ko'pincha esa o'z farzandining ehtiyojlari haqidagi o'ziga xos bilimlarning yagona saqlovchisiga aylanadi.

Ushbu jarayonda oilaning roli haqidagi ilmiy tushuncha Joys Epshteynning oltita ishtirok turini ajratib ko'rsatadigan asosiy modeliga tayanadi: ota-onalik, kommunikatsiya, ko'ngillilik, uyda o'qitish, qaror qabul qilish va jamoat bilan hamkorlik. Epshteyn modelining muhim tomoni shundaki, u oltita ishtirok turini alohida emas, bir-biriga bog'liq deb hisoblaydi. Bitta soha zaif bo'lsa, qolganlariga ham ta'sir qiladi. Sergeli tumanidagi holatda buni aniq ko'rish mumkin. Ota-onalar uyda o'qitish va parvarish borasida juda ko'p ish qilishadi. Lekin qaror qabul qilishda ularning ovozi deyarli eshitilmaydi. Demak, oltita sohaning faqat ikkitasi ishlaydi, qolganlari bo'sh qolgan [3]. Ternbullarning oilaviy tizimlar nazariyasi ushbu yondashuvni to'ldirib, hamkorlikni ishonch va o'zaro hurmatga asoslangan sheriklik sifatida ko'rib chiqadi [4]. U oilani alohida bo'laklarga emas, yaxlit bir tizimga o'xshatadi. Agar tizimning bir qismiga bosim tushsa, butun oila buni his qiladi. Masalan, bitta bolaning nogironligi butun oilaning kunlik hayotiga, ish vaqtiga, dam olishiga ta'sir qiladi. Shuning uchun Ternbull faqat bolaga emas, butun oilaga yordam berish kerak, deydi. Bu ikki nazariya bir-birini yaxshi to'ldiradi. Epshteyn qaysi sohalarda hamkorlik kerakligini ko'rsatadi. Ternbull esa bu hamkorlik qanday munosabat asosida qurilishi kerakligini tushuntiradi - ya'ni ishonch, hurmat va tenglik asosida. Maqolada taklif qilingan "Individual hamrohlik varag'i" ana shu ikki g'oyaning birlashuvidan kelib chiqadi: u kommunikatsiyani rasmiylashtiradi (Epshteyn) va buni ota-ona bilan o'qituvchi teng huquqli hamkor sifatida qiladi (Ternbull) [5].

Biroq, 2024-2025-yillardagi tadqiqotlar ko'rsatganidek, xalqaro amaliyotda (Finlyandiyadan Ganagacha) ota-onalarning deklarativ ishtiroki bilan ularning bolaning ta'lim yo'liga real ta'siri o'rtasida farq saqlanib qolmoqda.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi Toshkent shahrining mahalliy kontekstida (Sergeli tumani misolida) ota-onalar tajribasini chuqur tahlil qilish zaruratidan kelib chiqadi. Bir paradoks kuzatiladi: individual o'quv rejalari va korreksion sinflarning faol joriy etilishiga qaramay, oiladan maktabga bilim uzatishning institutsional mexanizmlari rasmiylashtirilmagan bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi oila va maktab o'rtasidagi o'zaro hamkorlikdagi institutsional to'siqlarni aniqlash hamda hamkorlikni "shaxsiy omad"dan tizimli professional sheriklikka o'tkazishga qodir yangi hamrohlik vositalarini joriy etishni asoslashdir. Tadqiqot intervyularning sifat tahliliga asoslanadi, bu esa ota-onalarning "ovozini eshitish" va inklyuziv jarayondagi emotsional va tashkiliy uzilish nuqtalarini aniqlash imkonini beradi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot 2026-yil fevral oyida Toshkent shahri Sergeli tumanidagi 300-umumta'lim maktabi negizida o'tkazildi. Tanlanma maqsadli tanlov usuli bilan shakllantirilgan bo'lib, unga nogironligi bor 5 nafar bola ota-onasi (bolalarning yoshi 8-12 yosh) kiritilgan. Namunaviylikni ta'minlash uchun guruhga turli buzilishlarga ega bolalar oilalari kiritildi: eshitish (koxlear implantatsiyadan so'ng), nutq, tayanch-harakat apparati va yurak-qon tomir tizimi buzilishlari. Asosiy vosita sifatida 40–60 daqqa davom etadigan yarim tuzilmashtirilgan intervyu xizmat qildi. Sifat yondashuvidan foydalanish ota-onalarning shaxsiy tajribasini chuqur o'rganish imkonini berdi, buni miqdoriy so'rovnomalar orqali qayd etish qiyin. Olingan ma'lumotlar tematik kodlash usuli bilan tahlil qilindi. Respondentlarning javoblari transkripsiya qilindi va asosiy kategoriyalar bo'yicha taqsimlandi: institutsional to'siqlar, ota-onalarning psixologik holati va bolaning o'ziga xos ehtiyojlari.

ASOSIY QISM

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda ta'lim tizimining hozirgi transformatsiyasi sharoitida nogironligi bor bolalar ota-onalari turli ijtimoiy institutlar o'rtasidagi asosiy bog'lovchi bo'g'in rolini o'z zimmlariga olishga majbur bo'lmoqda. PQ-4860-son Qaror individual dasturlar va tyutorlik xizmatlarini joriy etishni nazarda tutgan bo'lsa-da, amalda axborot uzatishning tizimli mexanizmlari yetishmasligi kuzatilmoqda. Ota-onalar ko'pincha o'z farzandi bo'yicha "ekspert"ga aylanadi, uning tibbiy holati va ehtiyojlari haqida oddiy ota-ona vazifalaridan ancha chetga chiqadigan chuqur bilimlarga ega bo'ladi. Intervyular davomida respondentlar pedagoglarning

tegishli metodik tayyorgarligi yo'qligi sababli, maxsus jihozlar (masalan, koxlear implantlar) bilan ishlashga o'qituvchilarni mustaqil ravishda "o'rgatishga" majbur bo'lishlarini ta'kidlashdi. Shunday qilib, inklyuziya institutsional qo'llab-quvvatlashga emas, balki shaxsiylashtirilgan ishtiyoqqa tayanmoqda.

Psixoemotsional holat: "Sudlanuvchi sindromi". Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyalardan o'tish va individual o'quv rejalarini ishlab chiqish jarayoni ota-onalar uchun eng stressli bosqich hisoblanadi. Adabiyotlarda qayd etilishicha, ota-onalar ko'pincha o'z farzandining muammolarida tanqid va ayblanish hissi tufayli stress haqida xabar berishadi. Sergeli tumanida o'tkazilgan intervyular natijalari ushbu tezisni tasdiqlaydi: ishtirokchilar komissiyalarni bolaning salohiyatiga emas, balki uning kamchiliklari va cheklovlariga urg'u beriladigan "og'riqli tajriba" sifatida tasvirlashdi. Bu oila va maktab o'rtasida eng dastlabki bosqichdayoq ishonchsizlik to'sig'ini yuzaga keltirib, ota-onani "hamkor"dan farzandining huquqlari uchun kurashishga majbur bo'lgan "himoyachi"ga aylantiradi.

Nozologiya turlari bo'yicha ehtiyojlarning farqlanishi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning "muvaffaqiyatli inklyuziya"ga bo'lgan talablari har bir diagnostik guruh uchun o'ziga xosdir. Nazariy ma'lumotlar va so'rov natijalariga tayangan holda ustuvorliklar matritsasi tuzildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Inklyuziv muhitdagi o'ziga xos ehtiyojlar

Buzilish turi	Institutsional talab	Asoslash
Eshitish (implant)	Akustik moslashuv	Lab harakatini o'qish va o'qituvchi ishoralarini idrok etish uchun shovqinni kamaytirish va vizual yordamga bo'lgan zarurat. Shovqinli sinfda bola suhbat mavzusini yo'qotib qo'yadi va jarayondan "uzilib qoladi".
Tayanch-harakat apparati	Arxitektura qulayligi	Pandus, tutqichlar, maxsus jihozlangan umumiy foydalanish joylarining mavjudligi va sinflarning 1-qavatda joylashishi. 2-qavatdagi sinf bolaning ko'tarilish qiyinchiliklari sababli maktabga borishni istamasligiga sabab bo'ladi.
Nutq kechikishi	Kommunikativ moslashuvchanlik	O'quvchi javob berayotganda pedagogik sabr-toqat, muqobil kommunikatsiya vositalaridan foydalanish va masxaralashning oldini olish. Tengdoshlarning uzoq javoblar ustidan kulmasligi zarurligi.
Yurak nuqsoni	Tibbiy nazorat	Holatni muntazam kuzatish, zudlik bilan dam olish imkoniyati va jismoniy yuklamalarni individual kamaytirish. Sababini tushuntirmasdan dam olish huquqi.

"Oila-Maktab" kommunikatsiyasi: muammolar va imkoniyatlar. Inklyuziyaning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omil muloqotdagi ishonch va ochiqlikdir. Biroq, ko'plab o'qituvchilar o'zlarini tayyor emas his qilishadi va maxsus ehtiyojlarga ega bolalar ota-onalari bilan muloqotda tashvish sezishadi. Tadqiqot shuni aniqladiki, muloqot ko'pincha joriy muammolarni (xulq-atvor, baholar) hal qilish bilan cheklanadi va bolaning rivojlanishi bo'yicha uzoq muddatli maqsadlarga kamdan-kam tegadi. Toshkentlik ota-onalar raqamli platformalardan (masalan,

messenjerlardagi guruhlar) foydalanish kundalik masalalar uchun samarali ekanini, ammo nozik mavzular shaxsiy muloqotni talab qilishini ta'kidlashdi. Shu bilan birga, bola haqidagi amaliy bilimlarni (qanday muloqot qilish, qanday tinchlantirish, apparatni qanday tekshirish) uzatish uchun rasmiylashtirilgan hujjatning yo'qligi o'qituvchi almashinganda inklyuziv jarayonni juda zaif holga keltiradi.

Xalqaro kontekst va mahalliy o'ziga xoslik. Olingan ma'lumotlarni xalqaro tajriba (Gana, Iordaniya, Filippin) bilan solishtirish umumiy qonuniyatlarni ko'rsatadi: moliyaviy qiyinchiliklar, transport muammolari va ishlayotgan ota-onalarning vaqt yetishmasligi universal to'siqlar hisoblanadi. Kanada o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning aksariyati bolasini inklyuziv sinfga qo'yishga rozi bo'lsa-da, o'qituvchilar bilan muntazam uchrashuv o'tkazish imkoniga ega emas, chunki maktablar buning uchun alohida vaqt ajratmagan [6]. Iordaniyada o'tkazilgan tadqiqot esa ota-onalarning individual o'quv rejasini tuzishda rasman ishtirok etish huquqiga ega bo'lsa-da, amalda bu jarayon faqat hujjatga imzo qo'yish bilan cheklanishini aniqladi [7]. Filippin maktablarida o'tkazilgan tadqiqotda o'qituvchilar soni yetishmasligi va bitta sinfdan ortacha 40 dan ortiq o'quvchi borligi ota-ona bilan individual muloqot uchun vaqt qoldirmasligi qayd etilgan [8]. Germaniya va Finlyandiyada esa vaziyat boshqacha: bu davlatlarda har bir inklyuziv sinfdan doimiy ishlaydigan tyutor yoki yordamchi pedagog mavjud bo'lib, ota-ona bilan aloqa maktab tomonidan belgilangan jadval asosida, oyiga kamida bir marta rasmiy hisobot shaklida amalga oshiriladi [9].

Biroq O'zbekistonning o'ziga xosligi modelning o'tish davri xarakterida - tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o'tishda namoyon bo'ladi [10], [11]. Agar G'arb mamlakatlarida (Germaniya, Finlyandiya) muhokama inklyuziv resurslar sifati haqida borsa, Sergeli tumanida asosiy muammo axborot uzilishi bo'lib qolmoqda. Ota-onalar bola haqida noyob bilimlarga ega, ammo tizimda ularni maktab hujjatlariga rasman joylashtirish uchun "kanallar" mavjud emas.

Inklyuziv ta'lim tizimining samaradorligi, avvalo, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki qanday tashkil etilganiga bog'liq. Xalqaro tadqiqotlar ota-onalar va maktab o'rtasidagi tizimli hamkorlik o'quvchining akademik natijalari, ijtimoiy moslashuvi hamda psixologik farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Nogironligi bor bolalar ta'limida esa bu hamkorlik yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ota-onalar farzandining sog'lig'i, rivojlanish dinamikasi, individual ehtiyojlari va kundalik xulq-atvori haqidagi eng to'liq axborot manbai hisoblanadi. Shunga qaramay, amaliyotda ota-onalar ko'pincha teng huquqli hamkor emas, balki faqat muammolar yuzaga kelganda murojaat qiluvchi shaxs sifatida qabul qilinadi.

Toshkent shahri Sergeli tumanida inklyuziv ta'lim amaliyotini o'rganish jarayonida o'tkazilgan yarim tuzilmashtirilgan intervyular ota-onalarning aksariyati farzandining ta'limi bilan bog'liq tashkiliy, psixologik va ijtimoiy masalalarni mustaqil hal qilishga majbur ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, tyutorlar, logopedlar, defektologlar va maktab psixologlarining yetishmasligi natijasida ota-onalar o'qituvchi va mutaxassislar o'rtasidagi vositachi, ayrim hollarda esa norasmiy pedagog vazifasini ham bajarishga majbur bo'lmoqda. Bu esa oilalarning vaqt, moddiy mablag' va emotsional resurslariga qo'shimcha yuklama tushiradi.

Intervyular davomida ota-onalar tomonidan eng ko'p tilga olingan muammolardan biri PMPK xulosalarini amaliyotga joriy etish mexanizmlarining yetarli emasligi bo'ldi. Ko'plab hollarda tavsiya etilgan pedagogik yoki reabilitatsion choralar maktab sharoitida to'liq amalga oshirilmaydi. Natijada ota-onalar qo'shimcha mutaxassislarni mustaqil izlashga yoki farzandini xususiy markazlarga olib borishga majbur bo'ladi. Bu holat, ayniqsa, moddiy imkoniyati cheklangan oilalar uchun inklyuziv ta'limdan teng foydalanish imkoniyatlarini qisqartiradi.

Tadqiqot shuningdek, nogironlik turiga qarab ota-onalarning ehtiyojlari ham sezilarli farq qilishini ko'rsatdi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ota-onalari surdotarjimon va maxsus kommunikativ vositalarga ehtiyoj sezsa, tayanch-harakat tizimida buzilishlari bo'lgan bolalar oilalari maktab infratuzilmasining moslashtirilmaganligini asosiy muammo sifatida qayd etdilar. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar ota-onalari logopedik yordamning muntazam emasligini ta'kidladi, surunkali yurak-qon tomir kasalliklariga ega bolalar oilalari esa dars jadvali va jismoniy yuklamalarni bolaning sog'lig'iga moslashtirish zarurligini bildirdilar. Bu holat inklyuziv ta'limda yagona yondashuv emas,

balki individual ehtiyojlarga asoslangan qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ota-onalar duch kelayotgan asosiy to'siqlarni uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh – institutsional to'siqlar bo'lib, ularga mutaxassislar yetishmasligi, idoralararo hamkorlikning sustligi va individual kuzatuv tizimining yo'qligi kiradi. Ikkinchi guruh – ijtimoiy-psixologik to'siqlar bo'lib, ular stigma, stereotiplar, ayrim ota-onalar va o'quvchilarning salbiy munosabati hamda ijtimoiy ajralish bilan bog'liq. Uchinchi guruh esa iqtisodiy to'siqlar bo'lib, qo'shimcha ta'lim xizmatlari, transport va reabilitatsiya xarajatlarining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Finlyandiya, Germaniya, Kanada va Avstraliya kabi davlatlarda ota-onalar inklyuziv ta'lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning to'laqonli ishtirokchisi sifatida e'tirof etiladi. Ular individual ta'lim rejasini ishlab chiqish, bolaning rivojlanishini baholash hamda ta'lim sifatini monitoring qilish jarayonlarida muntazam qatnashadi. O'zbekistonda ham ushbu tajribani milliy sharoitga moslashtirish ota-onalarning institutsional maqomini mustahkamlash va ularning ta'lim tizimidagi rolini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan tadqiqot doirasida "Individual hamrohlik varag'i" modeli taklif etiladi. Mazkur hujjatda bolaning rivojlanish dinamikasi, mutaxassislar tavsiyalari, ota-onalar kuzatuvlari, pedagogik yondashuvlar va keyingi rivojlanish rejasi muntazam qayd etib boriladi. Ushbu mexanizm maktab, oila, PMPK mutaxassislari va boshqa tegishli xizmatlar o'rtasida uzluksiz axborot almashinuvini ta'minlaydi hamda ota-onaning rolini oddiy murojaatchidan inklyuziv ta'lim jarayonining teng huquqli ekspert-hamkoriga aylantirishga xizmat qiladi. Natijada inklyuziv ta'limning sifati oshadi, bolalarning individual ehtiyojlari to'liqroq qondiriladi va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun zarur institutsional sharoitlar yaratiladi.

XULOSA

Aniqlangan institutsional davomiylik tanqisligi asosida, "Bolaning individual hamrohlik varag'i"ni joriy etish taklif etiladi.

Maqsad: Oila va maktab o'rtasida amaliy (tibbiy bo'lmagan) bilimlar almashinuvini rasmiylashtirish.

Ilmiy asos: Vosita Ternbullarning "ishonchga asoslangan hamkorlik" tamoyillariga va Epshteyn modelining "kommunikatsiya" domeniga tayanadi.

Amaliy ahamiyati: Bunday varaqning joriy etilishi ota-onani "murojaatchi" rolidani "ekspert-hamkor" roliga o'tkazish imkonini beradi, bu esa 2025-yilgacha Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi maqsadlariga mos keladi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Toshkent shahrida inklyuziyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun faqat moddiy bazani mustahkamlashning o'zi yetarli emas. Ota-onalarning tajribasini institutsionallashtirish va ularning psixoemotsional yukini kamaytirishga imkon beruvchi kommunikatsion protokollar islohoti talab etiladi.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. UNESCO, 1994; Convention on the Rights of Persons with Disabilities. United Nations, 2006.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"i PQ-4860-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020-y., 06/20/4860/1394-son. URL: <https://lex.uz/docs/5044745>
3. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. 2nd ed. New York: Routledge, 2018.
4. Epstein J.L. School/Family/Community Partnerships: Caring for the Children We Share // Phi Delta Kappan, 1995. Vol. 76(9), pp. 701-712.
5. Turnbull R., Stowe M. A Model for Understanding Families of Children with Disabilities in a Cross-Cultural Context // Journal of Disability Policy Studies, 2001. Vol. 12(3), pp. 198-207.

6. Vanderpuye I. Piloting Inclusive Education in Ghana: Parental Perceptions, Expectations and Involvement: PhD thesis. – University of Leeds, 2013.
7. Al-Zyoudi M. (2015). Inclusive Education in Jordan: Institutional Barriers and Parent Involvement in Individualized Education Programs (IEPs). *International Journal of Special Education*, 30(2), 114-123.
8. Filippin. Factor S.D., Saenz, C. R. Barriers and Enablers of Inclusive Education for Learners with Disabilities: The Case of Philippine Primary Schools // *International Journal of Research and Innovation in Social Science-2025*. –Vol.9, DOI: 10.47772/IJRISS.2025.908000158
9. Saloviita T., & Schaffus T. (2016). Teacher Assistants in Inclusive Classrooms: A Comparative Study of Finland and Germany. *European Journal of Special Needs Education*, 31(3), 345-359.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son Qarori // *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi*, 14.10.2020-y.
11. Ganiyeva M.A. (2022). O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim: Tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o‘tishning pedagogik va tashkiliy asoslari. *Pedagogika va psixologiya tadqiqotlari jurnali*, 4(2), 15-22-b.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000